

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.M.Matqulov	
Nominative field of the concept "Wrestling" in English and Uzbek.....	372
D.M.Uktamovna	
"Mehrobdan chayon" va "Tanazzul" romanlarida tarixiy haqiqat va badiiy to'qima uyg'unligi ...	377
M.B.Siddiqov	
Urush nogironlarini ishga joylashtirishda tibbiy mehnat ekspert komissiyalarning roli.....	381
S.S.Abdullayev, D.M.Obidova	
Yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimi	387
R.I.Madaliev	
Artpedagogika vositasida (teatr sa'nati orqali) talaba yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish omillari va istiqbollari	391
D.Z.Xudaykulova	
Bolalarning mustaqil badiiy faoliyatlariga rahbarlik qilish metodlari.....	395
Sh.A.Dosbayeva	
Mantiqiy fikrlesh mashg'ulotlarining didaktik ta'minotini takomillashtirish.....	402
D.A.Xomidova	
Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bolalarning dizayn faoliyatini rivojlantirish.....	408
B.S.Sharipova	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini o'quvchilarda bioetik bilimlarni shakllantirishga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati.....	412
T.S.Axmedova	
Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida "Ilk qadam" davlat dasturidan foydalanish	416
N.M.Aliyev	
Gipotetik-deduktiv metod orqali bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	420
A.E.Normatov	
Neft va neft mahsulotlari bilan ifloslangan oqava suvlarini suv o'simliklari yordamida tozalash	425
I.O.Umarov	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida harbiy ta'lif talabalarida o'quv-jangovar sifatlarini rivojlantirish metodikasi	428
X.A.Madaminov	
Musobaqa faoliyati sharoitlarida kurashchilarning texnik-taktik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishonchliligi muammosi	433
B.Q.Qurbanova, M.Esonmirzayeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiya fani asosida milliy kasibga yo'nalrishning usul va metodlari.....	437
S.M.Boboraximov	
Kichik sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiyasida klasterli tabaqalashtirilgan yondashuvdan foydalanish zarurati	441
N.A.Akbarova	
Farg'ona viloyati musiqa maktablarining respublika va xalqaro tanlovlardagi ishtiroti va natijalari	445
A.A.To'raxonov, A.A.Ergashev	
Alovida ta'lif ehtiyojiga ega o'quvchilar muhitida autizm sindromli bolalar bilan ishslashning klaster mexanizmlari	450
M.M.Abdurahmonova, M.Suyumova	
Umumta'lif muassasalarida ijtimoiy ish amaliyotini amalga oshirish (Rossiya Federatsiyasi misolida).....	457



УО'К: 37.014.5:37.02:37.018.56

**GIPOTETIK-DEDUKTIV METOD ORQALI BO'LAJAK PEDAGOGLARDA ANALITIK
TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI**

**МОДЕЛЬ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ
ПЕДАГОГОВ С ПОМОЩЬЮ ГИПОТЕТИКО-ДЕДУКТИВНОГО МЕТОДИКА**

**PEDAGOGICAL MODEL FOR THE DEVELOPMENT OF ANALYTICAL THINKING IN
FUTURE EDUCATORS THROUGH THE HYPOTHETICAL-DEDUCTIVE METHOD**

Aliyev Nizomiddin Maxmasaitovich
Farg'onan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotasiya

Mazkur maqolada bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasining modeli yordamida analitik tafakkurni rivojlantirishda dialektik uslubning ham samaradorligi yuqori hisoblanishi hamda pedagogik jarayonda tafakkur uslublarini mushtarak holda qo'llashga o'rgatish rivojlantirish to'g'risidagi fikr mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье рассмотрены теоретико-методологические основы развития аналитического мышления у будущих педагогов посредством гипотетико-дедуктивного метода, высокая эффективность диалектического метода в развитии аналитического мышления, развитие обучения использованию стилей мышления в предстаенлен педагогический процесс в общепринятой форме.

Abstract

In this article, the theoretical-methodological foundations of the development of analytical thinking in future pedagogues through the hypothetical-deductive method, and the effectiveness of the dialectical method in the development of analytical thinking are considered high. In the pedagogical process, it is important to teach the common use of thinking styles.

Kalit so'zlar: gipotetik-deduktiv, yangi taraqqiyot, tafakkur ko'nikmalari, innovasion g'oyalar, mantiqiy fikrlash, individual sifatlar, barkamol inson, ta'lif standartlari, aqliy faoliyat turi, ilmiy-metodik.

Ключевые слова: гипотетико-дедуктивное, новое развитие, мыслительные способности, инновационные идеи, логическое мышление, индивидуальные качества, совершенный человек, образовательные стандарты, вид мыслительной деятельности, научно-методический.

Key words: hypothetical-deductive, new development, thinking skills, innovative ideas, logical thinking, individual qualities, perfect person, educational standards, type of mental activity, scientific-methodical.

KIRISH

Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish jarayonida ularda o'zaro ta'sirni amalga oshiruvchi omillardan biri talabalarni ta'lif jarayonida ijodiy ta'sir ko'rsatishga motivlashtirish hisoblanadi.

Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish jarayonida ijodiy ta'sir ko'rsatishga motivlashtirish ularning faolligini ta'minlashga va asosiy maqsadga yerishishga yo'naltirilgan bo'ladi va mazkur jarayonda asosiy o'zgarishlar vujudga keladi. Mazkur maqsadlarga yerishishda qator vazifalarni bajarish zarur:

- davlat, jamiyat va shaxsning muntazam rivojlanib borayotgan yehtiyojlariga mos, bilimli va qobiliyatli bitiruvchilar modelini amalga oshirishga asoslanish (ta'lif mazmunini yangilash);

- bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish jarayoniga innovasion yondashuvlarni joriy yetish;

- bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishga qiziqishlarni muntazam shakllantirib borish;

ILMIY AXBOROT

- o'rganiladigan mavzular va tushunchalarning mazmunini turli mafkuralardan tozalash, raqobatni vujudga keltiruvchi fikrlar bilan to'ldirish;
- yangilangan texnologik va dasturiy-metodik maxsulotlarni yaratish;
- bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish yo'nalishidagi ilg'or g'oyalarini o'rganish va amalga oshirish dasturlarini ishlab chiqish;
- talabalarning qiziqishlari, qobiliyatları va muhim ahamiyatga yega bo'lgan shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan umumiy rivojlanish shartlarini belgilovchi asoslar hisoblangan subyekt, talaba va o'qituvchi munosabatlarga asoslanish;

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ko'rsatilgan vazifalarni samarali bajarilishini ta'minlash bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bularni nazarda tutgan holda bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish jarayoni modeliga ularning faolligini ta'minlashga qaratilgan vazifalarni ifodalovchi quyidagi komponentlar kiritilishi muhim ahamiyatga yega:


- ta'lim-tarbiya jarayonini modernizasiya qilish, bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish va faolligini oshirishni ta'minlash yo'nalishida bajariladigan vazifalar bilan foydalaniadigan metodlar va yondashuvlarni muvofiqlashtirish;
- bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishga qiziqishni shakllantirish, va rivojlantirish vositalarini tanlash;
- talabalarda yangiliklarga moyillik va qiziqishlar shakllantiruvchi motivlarni aniqlash;
- talabalarda tanqidiy fikrlash va refleksiv tafakkurni shakllantiruvchi ijobjiy motivlarni aniqlash va motivlashtirish;
- pedagogik jarayonlarning mazmunini takomillashtirish omillarini aniqlash;

Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish ***yo'nalishidagi ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asosda olib borish*** va ta'lim samaradorligini oshirish uchun pedagogik jarayonlarni tashkil yetish va muvofiqlashtirish yo'nalishida belgilangan maqsadlarga yerishishda talabalarning faoliyati, bilim, ko'nikma va malakalari darjasи, qobiliyatları, shaxsiy xislatlari, shuningdek, ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etishning murakkab tomonlarini faol o'rganish va shular asosida ta'lim jarayonini modellashtirish zarur hisoblanadi.

Mazkur modelni gipotetik-deduktiv metod orqali bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish andozasi deb qarashimiz mumkin. Model ta'lim-tarbiya jarayonlarining barcha shakllarini o'zaro bog'liqligini ta'minlovchi, belgilangan maqsad va vazifalarning yo'nalishini ifodalovchi va ko'zlangan natijalarga erishishni ta'minlovchi o'zaro bog'liq bo'lgan va bir-birini o'zaro to'ldiruvchi komponentlardan iborat bo'lgan tizim sifatida tasvirlanganligini inobatga olib aytishimiz mumkinki, modelda keltirilgan komonentlarning har biri bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish tizimi komponentlari sifatida butun bir tizimni o'zgarishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

NATIJALAR

Modelda ko'zda tutilgan maqsad bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishdan iborat bo'lsa-da, bugungi talaba ertangi pedagog, ya'ni pedagogik jarayonlarida ishtirot etuvchi mutaxassis, mazkur jarayonlarni tashkil etuvchi va muvofiqlashtiruvchi rahbar (ma'naviy-ma'rifish ishlari bo'yicha direktor o'rinosari va h.k.), talabalar bilan bevosita tarbiyaviy ishlarni olib boruvchi guruh rahbari, mazkur yo'nalishlarda to'garaklar ishini olib boruvchi to'garak rahbari va h.k. sifatida faoliyat ko'rsatishini inobatga olgan holda modelda barchaga tegishli hisoblangan jarayonlarni o'rganish va ular asosida vazifalar belgilash zaruriyati ko'rsatilgan.



Modelda keltirilgan metodologik asoslardan biri sifatida davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlari, zamonaviy talablar keltirilgan bo'lib, bunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari, fan-texnika yutuqlari, yaratilayotgan yangiliklar va rivojlanishlar asosida vujudga kelayotgan talablarni, rivojlanib borayotgan davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlari, rivojlanishlarga bog'liq holda kun sayin o'zgarib, yangilanib va rivojlanib borayotgan zamonaviy talablarni, shuningdek, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash va Vatanimiz ravnaqiga xizmat qiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazish yo'nalishidagi ilg'or g'oyalarni o'rganish va ular asosida vazifalar belgilash nazarda tutilgan.

Shuningdek, modelda bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda fanlararo aloqalarni ta'minlash, fanlar bo'yicha o'qitiladigan mavzularni analitik tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan tushunchalar bilan bog'lab o'rnatish, bakalavrlearning bilimi, ko'nikma va malakalari darajasiga qo'yilayotgan talablar asosida o'quv dasturlari va ta'lim-tarbiya jarayonining mazmunini muvofiqlashtirish zaruriyati nazarda tutilgan.

ILMIY AXBOROT

Modelning asosiy komponentlaridan biri sifatida oliy o'quv yurti talabalari (bakalavrular)da analitik tafakkurni rivojlantirishda tashkilotchilik, tadqiqotchilik va ijodkorlik, innovatsion faollik, qobiliyatlarini hamda muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy sifatlarni rivojlantirish bo'yicha vazifalar belgilangan.

Taklif etilayotgan modelning asosiy komponentlaridan biri pedagogik jarayonlar bo'lib, uning komponentlari sifatida ta'lism - tarbiya, mustaqil ta'lism va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining asosiy shakllari keltirilgan. Modelda pedagogik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash zaruriyati belgilangan bo'lib, ta'lism, mustaqil ta'lism va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda mazkur jarayonlarni tashkil etishga tizimli yondashuvni tatbiq etish zaruriyati inobatga olingan.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etishni rejalashtirishda va loyihalashtirishda, eng avvalo, mazkur jarayonlarning maqsadi, belgilangan vazifalarning mazmun-mohiyati va mavjud imkoniyatlar inobatga olinadi. Umumiy maqsadlarga erishishda belgilangan vazifalarning bajarilish ketma-ketligi belgilanadi hamda mazkur vazifalarni bajarishda, ya'ni ta'lism-tarbiya jarayonini tashkil etishda qo'llaniladigan o'qitish metodlari va asosiy yondashuvlar tanlab olinib, o'rganiladigan mavzuning mazmun-mohiyatiga ko'ra hamda vaziyatlarga ko'ra muvofiqlashtiriladi.

Taklif etilayotgan modelning asosiy komponentlaridan yana biri pedagogik jarayonlarni tizimlashtirish bo'lib, unda quyidagi ishlarni amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega: pedagogik jarayonlarning natijaviyligini aniqlash va takomillashtirish yo'nalishidagi vazifalarni belgilash; pedagogik tizimning istiqbolini va rivojlantirish yo'nalishidagi vazifalarni belgilash; mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoliy-iqtisodiy islohotlar va ularning natijalari, fan-texnika yutuqlari, yaratilayotgan yangiliklar va rivojlanishlar, yoshlarning intellektual salohiyatini o'sib borishi, rivojlanib borayotgan davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlari va zamonaviy talablarni o'rganish; talabarning faolligini ta'minlash yo'nalishida bajariladigan vazifalar bilan foydalaniladigan metodlar va yondashuvlarni muvofiqlashtirish; ilg'or pedagogik tajribalarni va zamonaviy texnologiyalarini o'rganish, eng qulay va samarali hisoblangan o'qitish vositalari, metodlari va yondashuvlarni tanlash va amaliyotga tatbiq etish.

Pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda ta'lism-tarbiya jarayonlarining natijaviyligi aniqlanib, ilg'or pedagogik tajribalar va zamonaviy o'qitish vositalari, eng qulay va samarali hisoblangan metodlar va yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish hamda talabalarining yangiliklarga moyilligi va imkoniyatlarini inobatga olgan holda belgilangan vazifalarni tahlil qilish va takomillashtirish jarayonida qayta aloqa ta'minlanadi.

Begilangan vazifalarni yangilash va takomillashtirish bo'yicha qayta aloqa nafaqat o'rganilishi rejalashtirilgan barcha mavzular o'tib bo'lingandan keyin, balki har bir mavzuning o'rganilish samaradorligiga, yaratilayotgan yangiliklarning mazmun-mohiyatiga va vujudga kelayotgan vaziyatlarga ko'ra, ya'ni zaruriyatga qarab muntazam amalga oshirib borilishi mumkin. Bunda qayta aloqa pedagogik jarayonlarni takomillashtirish vositasi sifatida vujudga keladi va u vaziyatlarga ko'ra pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlash uchun zarur hisoblanadi.

MUHOKAMA

Yuqoridagilarga asoslanib aytish mumkinki, ta'lism-tarbiya jarayonini modellashtirish – bu ta'lism-tarbiya jarayonini tashkil yetishda muhim ahamiyatga yega bo'lgan talablar asosida ishlab chiqilgan, samarali hisoblangan metodlardan foydalanishni ifodolovchi, mazkur jarayonni tashkil yetish bosqichlari va funksiyalari aks yettirilgan ta'lism-tarbiya jarayonlarini tashkil yetishda qo'llanishi mumkin bo'lgan andoza.

Pedagogik jarayon pedagogik tizim doirasida amalga oshadi. Pedagogik tizim bir necha tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ular o'rtaсидаги aloqadorlik mustahkam xarakterga ega. Ular: o'qituvchi, talabalar, o'quv jarayoni maqsadlari, natijalar, ta'lism mazmuni, o'qitish vositalari, usullari, metodlari va texnologiyalarini o'z ichiga oladi. Bizningcha, ushbu jarayonda quyidagi tizimga asoslanish maqsadga muvoffiq sanaladi.

Ta'lism-tarbiya jarayonlarida gipotetik-deduktiv metod orqali bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishga alohida ye'tibor qaratish, mazkur jarayonda ko'proq erkin va mustaqil fikrlashga o'rgatish, talabalarning subyektivligini oshirish hisobiga, sub'yeqt-ob'yeqt munosabatlaridan subyekt-subyekt munosabatlariga o'tish, ya'ni shaxsga yo'naltirilgan ta'lism jarayonini tashkil yetish, shuningdek, ularning mustaqil ta'lism olishlari uchun shart-sharoitlar

yaratish, mustaqil olgan ma'lumotlarini o'rganish asosida ularning ilmiyligi, yangiligi va ishonchlilagini tahlil qilish, eng yangi va ishonchli axborotlar bilan ta'minlash, talabalarning faoliyatini muvofiqlashtirishda axborotlar almashinuviga alohida ye'tibor qaratish zaruriyati belgilandi.

Analitik tafakkur samaradorligi yagona ta'lif - tarbiya jarayonida olingan bilimlarning yangilik darajasi, originalligi, o'ziga xosligi, qiziqtirishning yuqoriligi va motivasiyalanishi bilan tavsiflanadi. Bu sifatlar analitik fikrlash jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lib, turli usul va vositalar bilan muammoni hal qilishga harakat qilgan, urinib ko'rgan kishida namoyon bo'ladi va yaqqol ko'zga tashlanadi, bunday urinishlarning besamarligiga ishonch hosil qiladi, muammoni hal qilish uchun yangi bilimlarga, yangi ma'lumotlarga muhtojlik paydo bo'ladi. Natijada, sub'yekt uchun yangi va original narsa paydo bo'ladi.

Tadqiqot ishini olib borishda bo'lajak pedagoglarni analitik tafakkurini "Voqealar rivoji" texnologiyasi asosida rivojlantirishga harakat qildik. Ma'lumki, "Voqealar rivoji" texnologiyasi gipotetik-deduktiv metod orqali bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega sanaladi.

Mazkur texnologiya gipotetik-deduktiv metod orqali bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidagi turli yondashuv va munosabatlar bo'yicha bir - biriga bog'langan voqealardagi bosqichlar va bosqichlardagi voqealarni tizimli tarzda yetkazib berish uchun zanjir vazifasini bajarishga qaratilgan. Mazkur jarayonni ahamiyati va zaruriyatini inobatga olib, innovasion fikrlash ko'nikmasini takomillashtirishga yo'naltirilgan "Voqealar rivoji" texnologiyasini ishlab chiqdik.

Yuqorida bildirilgan fikrlarning har biri o'z maqsadiga va xususiyatiga ega bo'lib ular voqealar turlarining majmui bilan tavsiflanadi. Gipotetik-deduktiv metod orqali bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda talaba tomonidan turli yondashuvlar asosida voqe-hodisani tahlil qilishi, umumlashtirishi, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarishi, taqqoslashi, aniqlik kiritishi, uning erkinligi, tashabbuskorligi voqe - hodisalarga shunchaki emas, tanqidiy yondashishi, ijodiy va innovasion fikr yuritishi talabalarning emosinal ta'sirchanligini oshiradi va o'z faoliyatlarida ulardan samarali foydalanishga imkon beradi.

XULOSA

Xulosa qilib, bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda muloqotmandlik, hissiy barqarorlik, ijtimoiy dadillik, ijtimoiy yetuklik, o'ziga ishonish, o'zini nazorat qilish kabi shaxslilik xususiyatlari ularda sosial intellekt ko'rsatkichlarining barqaror va izchil tarzda rivojlanishini xulosaga kelindi.

Bo'lajak pedagoglarni analitik tafakkurini rivojlantirishda o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini takomillashtirishni ifoda etuvchi autopsixologik kompetentlikni qaror toptirish lozim. Aynan autopsixologik kompetentlik shaxsnинг ichki yo'nalganligi bilan aloqador bo'lib, kommunikativ, ijtimoiy-perseptiv, ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarni o'zida aks ettiruvchi metakompetentlik sifatida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Вяткин Л.Г. Развитие творческих способностей учащихся. // Актуальные проблемы развития личности учащегося. - Саратов: Изд-во СГУ, 1995. -С. 32-
2. Сухин И.Г. 800 новых логических и математических головоломок. -СПб.: Союз, 2001. -208 с.
3. Колмакова Н.А. Формирование готовности студентов педвуза к развитию логического мышления младших школьников (на примере математических дисциплин): Автореферат дис. ... канд. пед. наук. - Шадринск: Изд-во ЩГПИ,2000. -22с.
4. Овчинникова Т.Н. Личность и мышление ребенка: диагностика и коррекция / Овчинникова Т.Н. Научно-внедренческая лаборатория психопедагогики образования. - М.: Акад. проект, 2002. - 188 с.
5. Выготский Л.С. Педагогическая психология. - М.: Педагогика, 1996. -394 с.
6. Божович Л.И. Отношение школьников к учебе как психологическая проблема // Божович Л. И. Проблемы формирования личности. -М: "Институт практической психологии", Воронеж: НПО "МОДЭК", 1995. - С. 55-107.
7. Коляда Е.П. Развитие логического мышления учащихся-подростков на основе межпредметных задач: Автореф. дис. ... канд. пед. наук: (Математика, информатика). Саратов: из-во Сарат. гос. ун-т им. Н. Г. Чернышевского, 1996. -15 с.
8. Гетманова А.Д. Логика: учебник для педагогических учебных заведений. - М.: Новая школа, 1995. - С. 7.